

bog‘liq bo‘ladi. Bu usullar yordamida don va don uyumlarni zararkunandalardan zararsizlantrish mumkin bo‘ladi.

Xulosa: Har bir maqola yoki ilmiy izlanishdan ko‘zlangan maqsad bo‘ladi va shu maqsad asosida vazifalar tartib asosida amalga oshiriladi. Shu asnoda ushbu maqoladan ko‘rinib turibdiki, har bir jarayon izlanishlar va tarjibadan kelib chiqan holda amalga oshiriladi, qarshi kurashishdan oldin zararkunandalar o‘rganiladi va shunga qarab kurashish usulli tanlanadi. Maqolada ko‘rsatib o‘tilgan usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Abdullayev, G.Zakladnoy “Don zaxiralari zararkunandalari va ularga qarshi kurash profilaktik choralari”, Sharq, Toshkent.
2. S.Tursunov, Z.Muqimov, B.Norinboyev “Don zaxiralari zararkunandalari va ularga qarshi kurash profilaktik choralari”, Uch yulduz, Toshkent.
3. Z.M. Muqimov “Donni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi”-Toshkent – 2021
4. Трисвятский Л.А. «Хранения зерна» М-Москва Колос. 1986.
5. М.А Телемгатор. «Обработка и хранение зерна» М.: Колос, 1984.

O‘SMIRLARDA NEVROZNING NAMOYON BO‘LISHI VA SABABLARI.

Mamasidiqova Muslimaxon Abdukaxxor qizi

University of Business and Science pedagogika-psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya; Mazkur maqolada o‘smir yoshdagi bolalarda nevroz kasalligining namoyon bo‘lish xususiyatlari va uning asosiy sabablariga e‘tibor qaratiladi. Psixologik biologik va ijtimoiy omillarning nevroz rivojlanishiga ta’siri ko‘rib chiqilib ushbu muammoga qarshi kurashish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar; o‘smirlar nevroz, psixologik omillar, ijtimoiy muhit ruhiy salomatlik oldini olish.

Аннотация; В данной статье рассматриваются особенности проявления невроза у подростков и его основные причины. Анализируется влияние психологических биологических и социальных факторов на развитие

невроза а также обсуждаются методы борьбы с данной проблемой
ключевые слова: подростки невроз психологические факторы, социальная среда психическое здоровье профилактика.

Abstract: *This article examines the characteristics of neurosis in adolescents and it's main causes. The impact of psychological biological and social factors on the development of neurosis is analyzed along night a discussion of methods to combat this issue.*

Keywords; *Adolescents neurosis psychological factors, social environment mental health prevention.*

Yurtimizda yoshlar salomatligini saqlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimizning “ 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi Farmonida yoshlarning ma'naviy intellektual jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish asosiy vazifalaridan biri sifatida keltirilgan. Shunday ekan yoshlarning psixologik salomatligini saqlash maqsadida o'smirlardagi nevroz bilan bog'liq muammoni o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'smirlik - bu inson hayotidagi qiyin va ayni davrni “o'tish davri” deb ham atashadi. Bu davrda bola teng huquqli ishtirokchi sifatida kattalikka kirishiga tayyorlanadi. Bu yoshda o'smirlarda fiziologik hamda psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi, tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi hujayra hamda organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Psixologik o'zgarishlar davrida o'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat qobiliyat va imkoniyatlarni ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilarga ko'rsatishga intiladi. O'smirlikda ko'pincha o'zboshimchalik o'jarlik, tajanglik, urushqoqlik va maksimalizm kabi xususiyatlar paydo bo'ladi. Shubhasiz o'smir hali jismonan yoki psixologik jihatdan haqiqiy balog'atga yetmagan ammo shunga qaramay kattalar bilan teng huquqli bo'lishga intiladi. Ya'ni o'smir har taraflama kattalarga o'xshab mustaqil qaror qabul qilishga harakat qiladi. Afsuski, bunday harakatlar ota-onasi o'qituvchilari tomonidan bostiriladi. Natijada o'smirning psixologik holatida bevosita o'zgarish sodir bo'la boshlaydi. Ta'lim jarayonida nevroz holatlari o'smirlarda boshqa davrga nisbatan ko'proq bo'lishi kuzatiladi. Hozirda nevrozning kasallik ekanligi to'g'risida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ba'zi ekspertlar bu holatni kasallik deb hisoblamaydilar balki, uni faqat psixologik muammo deb bilishadi. Umuman olganda Xalqaro klassifikatsiya bo'yicha bir qancha omillar o'smirlarda nevroz namoyon bo'lishiga olib kelishi mumkin.

O'smirlardagi nevrozlarning patogenezi kasallikning patofiziologik mexanizmi va klinik ko'rinishini shakllantirish tarixini ifodalaydi. Quyidagi omillar ta'sir dinamikasida nevroz patogenezi ko'rib chiqaylik;

- 1) tananing konstitutsiya va neyrosomatik zaiflashishi;
- 2) premorbid xususiyatlar va yosh;
- 3) noqulay hayotiy vaziyat.
- 4) ruhiy travma va ichki ziddiyat;
- 5) neyropsixik stress;
- 6) patofiziologiya;

7) shaxsiyatning o'zgarishi. Patogenezni ko'rib chiqishda avvalgi olingan hamda yangi ma'lumotlar umumlantiriladi. Haqiqatdan ham, o'smirlarda nevroz kelib chiqishida juda ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham olimlar kasallik patogenezi alohida ahamiyat berish kerakligini aytib o'tishgan.

Nevrozlarning asosiy sabablari; Aqliy yoki jismoniy zo'riqlash, surunkali stress toliqlash ishda yoki shaxsiy hayotda bosim, asab tizimining zaiflashuvi, salbiy omillarning uzoq muddatli ta'siri, dam olishning yetishmasligi, tug'ma charchashga moyillik, alkagol yoki giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish, toksinlarning asab tizimiga ta'siri.

Nevroz ruhiy belgilari; hissiy zo'riqlash, surunkali charchoq, harorat o'zgarishlari yorqin yorug'lik va baland tovushlarga sezgizlik, o'z-o'zini past yoki yuqori baholash komplekslar, kayfiyatning tez o'zgarishi, yig'loqlilik jahldorlik.

Nevroz o'zining eng umumiy ko'rinishida o'z-o'zini anglashining yetarli emasligi oqibati, bu ehtiyojni to'sib qo'yish holati hisoblanadi bu o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi qabul qilishda muammolar mavjudligi o'zini yetarli darajada yaxlit bo'lmaganligi bilan bog'liq. Psixologik aralashuvning maqsadi insonning xabardorlik va o'zini o'zi qabul qilish va integratsiyalashuviga yordam beradigan yangi hissiy tajribani boshdan kechirishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratishdir. Maktab nevrozlarini tatqiq etish uchun bolani uning maktab va maktabdan tashqari hayotida turli vaziyatlarda kuzatish o'qituvchilar ota-onalar o'quvchilar bilan suhbatlashish va maxsus psixodiyagnostik metodlar zarur.

Maktab psixologik amaliyotida maktab nevrozi bo'lgan bolalarning bir necha turi farqlanadi.

1) Xulqida aniq chetlanishlar bo'lgan bolalar (darsda o'zlarini yomon tutadi, dars paytida sinfda turib yuradi, o'qituvchiga qo'pollik qiladi boshqarish qiyin faqat sinfdoshlari emas o'qituvchiga ham agressiv). Odatda yomon o'qiydi, o'z-o'zini yuqori baholaydi. Ular uchun giperdinamik sindrom patologik fantaziya sindromi xarakterli. Ko'pincha o'qituvchilar bunday bolalarni pedagogik qarovsiz yoki xatto aqli zaif deb hisoblaydilar.

2) Shunday holatlar bo'ladiki, yaxshi o'zlashtiradigan darsda o'zini yaxshi tutadigan o'quvchilar ortiqcha yuklama yoki emotsional hayajon natijasida birdan o'zgarib qoladi. Ularda depressiya apatiya paydo bo'ladi. O'qituvchilar o'quvchini go'yo almashtirib qo'yishadi u o'qishga qiziqmay qo'yadi deb aytadilar. Bola maktabga borishdan bosh tortadi, qo'pollik qila boshlaydi. Nevrotik depressiya bog'lanishli hodisalar sindromi kabilar kayfiyat tushishi emotsional labillik xavotir fonida namoyon bo'ladi. Ba'zan bu guruh bolalarida autizm to'liq yoki qisman mutizm kuzatiladi.

3) Bu guruh murakkabligi shundaki tashqi ko'rinishdan muvaffaqiyatli(o'zlashtirish yaxshi xulq qoniqarli) bolalarda emotsional nomaqbullik alomatlar javob berishga qo'rqish og'zaki javob berganda qo'l titrashi kuzatiladi sekin gapiradi, doim bir chekkada yuradi. O'z-o'zini baholash odatda past ko'nglinozik senzitivlik xavotirlilik darajasi baland. Uyatchanligi ortiqcha xavotirliligi bois o'z qobilyatlarini to'liq namoyon qila olmaydi

Tadqiqotlar ko'rsatishicha bunday bolalarda noverbal intellekt verbaliga nisbatan ancha yuqori. Ular faqat yakka tartibda ishlaganda ochiladilar. Bu bolalar uchun fobik va qo'rquv sindromlari xarakterlidir.

T.V.Dragunovaning ta'kidlashicha o'smirning o'ziga xos ijtimoiy faoliyati kattalar dunyosida mavjud bo'lgan xatti-harakatlar; qadriyatlar, me'yorlar normalarni o'zlashtirishga ko'proq moyillikni anglatadi. O'smir taqlid orqali kattalar hayotiga qo'shilishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ,nevroz aqliy rivojlanishdan orqada qolish. Buning sabablari esa juda ham ko'p turli xil kasalliklar va tug'ma zaiflik orqali ham kuzatiladi. Bu asosan atrof-muhitga ham bog'liq bo'ladi. Ko'pincha esa ota-onalarga ham bog'liq. Chunki, ular bolalarni haddan tashqari qo'rqoq yoki haddan tashqari erka qilib tarbiyalash oqibatida kelib chiqadi. Biz bunday holatlarni adiblarning asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Said Ahmadning 'Ufq, romanidagi Hijron kunlarida nomli bobida ham ko'rishimiz mumkin. Unda Tursunboy ismli bolaning qanday erka va tantiq o'ziga bino qo'ygan maqtanchoq qilib tarbiyalangani, ota-onasi va o'zini tengdoshlariga qilgan muomalasi manmanlik qilishi orqali yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR;

1. Taxoxov B.A. zamonaviy qiyin o'smirlar ning psixologik va padagogik xususiyatlari. 2018.
2. Nishonova Z.T. Alimova G.K. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya darslik- 2019.
3. Z.Ibodullaevning Asab kasalliklari darsligidan.